



**SPEECH TECHNIQUE AND CULTURE. SELF-EDUCATION
AND SELF-DEVELOPMENT AS THE MAIN CONDITIONS FOR
PEDAGOGICAL MASTERY**

Student of Termiz State Pedagogical Institute

ERGASHEVA KOMILA JO'RA QIZI

komilaergaseva926@gmail.com

Abstract: This article highlights speech, which is considered the most important factor in the life of a teacher, educator, and every individual. You can find answers to questions such as: What is speech? What kind of tool is speech, and why is it necessary? What is speech technique? At the same time, the factors influencing the popularization of speech among people and its development as a primary means of communication are described.

Keywords: Speech, clarity of speech, fluency of speech, correctness of speech, comprehensibility of speech, speech ability, speech styles, art of oratory, types of speech, orator, eloquence, preacher, dialectism, barbarism, vulgarism

**NUTQ TEXNIKASI VA MADANIYATI. O'Z-O'ZINI TARBIYALASH VA
O'Z USTIDA ISHLASH PEDAGOGIK MAHORATNING ASOSIY SHARTI
SIFATIDA**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TALABASI

ERGASHEVA KOMILA JO'RA QIZI

komilaergaseva926@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchi, pedagog qolaversa, inson hayotida eng muhim omil hisoblangan, nutq yoritib berilgan. Nutq nima? Nutq qanday vosita va nima uchun kerak. Nutq texnikasi nima? singari savollarga javob olishingiz mumkin. Shu bilan birgalikda insonlar orasida nutqning ommalashgani, moqot vositasi sifatida yuksalishiga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar ham bayon etilgan.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Kalit soʻzlar: Nutq, nutqning aniqligi, nutqning ravonligi, nutqning toʻgʻriligi, nutqning tushunarlilik, nutq qobiliyati, nutq uslublari notiqlik sanʼati, nutqning turlari, notiq, voizlik, vaʼxon, dialiktizm, varvarizm, vulgarizm.

Har bir insonning maʼnaviy va madaniy kamolotga erishuvida tilning oʻrni alohidadir. Til insonlararo muloqot hamda fikr va axborot almashinuv vositasidir. Til millatning tamal toshidir. I.A.Karimov «Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. Oʻz tilini yoʻqotgan har qanday millat oʻzligidan judo boʻlishi muqarrar» deb taʼkidlaganida haqli edi.

Insonni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan ham tildir. Shunday ekan, inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari - tafakkur mevalari til va nutq orqali roʻyobga chiqadi. Til tafakkur mahsullarining hayotga tadbiiq etilishiga vosita boʻluvchi qudratli quroldir. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida “til – fikr ifodalash va oʻzaro aloqa quroli boʻlib xizmat qiladigan tovushlar, soʻzlar grammatik vositalar sistemasi” deb taʼriflansa, nutqqa “fikrni til orqali ifodalash qobiliyati, mahorati” yoki “soʻzlashuv jarayonidagi til” deb taʼrif beriladi.

Nutq tafakkur va fikrlashda oʻzaro muloqot yordamida fikr almashish vositasining har bir kishiga xos shakli, koʻrinishidir. Nutq madaniyatining asosiy xususiyati uni ilmiy, sermazmun, aniq-ravshan, ravon, toʻgʻri, taʼsirli, badiiy, mantiqiy, jarangdor, jozibali bayon etishdan iborat. Buning uchun nutq, avvalo, adabiy til qonun-qoidalariga toʻliq javob berishi lozim. Nutq madaniyati yakka shaxslar, chunonchi, maʼruzachi, pedagog, suxandon, davlat va jamoat arbobi, jurnalist, muxbir va shu kabilarning nutqlari orqali namoyon boʻladigan ijtimoiy hodisadir. Insonning intellektual saviyasi, millatning mentaliteti, maʼnaviy boyligi ortib borgani sayin nutq madaniyati ham yuksalib boradi. Nutq madaniyati nutq soʻzlash, maʼruza qilish, oʻzaro muloqot, savoljavob, davra suhbatlarida oʻzbek adabiy tili boyligidan samarali foydalanish; gʻoyaviy, mafkuraviy, maʼnaviy, tarbiyaviy jihatlarni singdirish; xalq ogʻzaki ijodi,





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

hikmatli soʻzlar, maqollar, kattalar oʻgʻitlaridan oʻz oʻrnida, meʼyorida foydalanish; nutqning qisqa, aniq-ravshan, teran mazmunli, keng qamrovli boʻlishiga eʼtibor berish; nutq, maʼruza, suhbat oxirida qisqa xulosalar chiqarish; zarurat tugʻilganda tinglovchilar, suhbatdoshlar bilan odob doirasida, vazminlik asosida bahslashish, munozara yuritish kabi xususiyatlarni oʻzida mujassam etmogʻi lozim.

Ammo tilning yaratuvchisi xalq ekanligini va uning, eng avvalo, xalqqa xizmat qilishini toʻgʻri anglovchi sogʻlom fikrli kishilar uning ijtimoiy mohiyatini doimo toʻgʻri tushunib kelganlar. Navoiyning davlat arbobi sifatida mehnatkash xalq oldida qilgan chiqishlari, uning til haqida aytgan fikrlari buning dalilidir. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lugʻatayn», «Mahbub ul-qulub», «Naztn ul-javohir» asarlari oʻzbek tilida nutq tuzishning goʻzal namunalari boʻlishi bilan birga uning mukammallashishiga ham katta hissa qoʻshdi.

Nutq madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohasidir. Nutq odobida suhbat, muzokara, muloqotning muayyan texnologiyasi (yoʻrigʻi) mavjud. U tanishish, murojaat qilish, salomlashish, xayrlashishning muayyan shakli bilan bogʻliq. Nutq odobining madaniy meʼyorlari minnatdorchilik, tilak bildirish, kechirim soʻrash, iltimos qilish, taklif qilish, maslahat berishning tartiblangan boʻlishini nazarda tutadi. Ishga aloqador suhbatning mazmuni, aniq amaliy masalalarni muhokama qilishdan tashqari, yupatish, hamdardlik bildirish, shuningdek, mulozamat, qoʻllab-quvvatlash, qoʻshilmaslik usullarini ham odob doirasida ifoda etish va bayon qilish muhim oʻrin tutadi. Yosh avlodda nutq odobini tarbiyalash bugungi kundagi maʼnaviy-maʼrifiy, taʼlim-tarbiya sohasidagi dolzarb vazifalardan biridir. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, sanʼat, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida oʻrni bor. Ayniqsa, adabiy tilni meʼyorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, oʻquv va boshqa maxsus lugʻatlar muhim ahamiyatga ega.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Madaniyatning keng tushunchasi, shubhasiz, aloqa madaniyati, nutq xulq-atvori madaniyati deb nomlanadigan narsani o'z ichiga oladi. Unga egalik qilish uchun nutq odob-axloqining mohiyatini tushunish muhimdir. Nutq madaniyati jamiyat hayotining, jamiyat madaniyatining o'ta muhim ajralmas tarkibiy qismi, muayyan voqeligi, ko'inishi sifatida alohida ahamiyatga egadir. U fikr almashish, muomala so'zlash kabi kundalik, doimiy, zaruriy jarayonlarni o'z ichiga oladi, ular orqali voqelikka aylanadi, ta'sir qilish quvatiga ega bo'ladi.

Til va nutq o'zaro dialektik bog'liq ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixik hodisalar, bo'lib, til aloqa quroli sifatida, nutq esa aloqa usuli sifatida mavjuddir. Nutq bu rasmiy tildir. U keng ma'noda so'zlardan, so'z birikmalari va gaplardan tashkil topadi. «Nutq madaniyati va notiqlik san'ati» fani hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganar ekan, shu adabiy til asosida vujudga keladigan barcha nutq turlari, adabiy tilga asos botuvchi xalq tili shevalari ham uning ob'ektiga daxldordir. Nutq madaniyati sohasi adabiyotshunoslik, poetika, estetika, etika, pedagogika, mantiq, ruhshunoslik, siyosatshunoslik sohalari bilan bog'liq.

Notiqlik va voizlik san'atiga oid asarlar, o'zbek madaniy nutqiga asos bo'lgan milliy adabiy meros namunalari, o'zbek milliy hujjatchiligi hamda davlat tilida ish yuritish qonun - qoidalari majmuasi nutq madaniyati fanining asosiy ob'ektlaridandir. Keyingi yillarda oliy o'quv yurtlarining barcha fakultetlarida «Nutq madaniyati va notiqlik san'ati» fanining o'qitilayotganligi quvonarli holdir. Yosh avlodni tarbiyalashdek o'ta mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga olayotgan talabaning o'z fanini chuqur o'rganishining o'zi yetarli emas. Ona tilida puxta, lo'nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o'qituvchisi uchun ham, ona tili o'qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir. Samimiylik, xushmuomalalik, odoblilik, o'quvchilarga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning o'quvchilar tomonidan e'tibor bilan tinglanishiga sabab bo'ladi. Mukammal notiqlik san'atiga ega bo'lish – o'qituvchilar uchun ulkan mehnat talab qiladigan murakkab jarayondir. Nutqning





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

o‘tkirligi, yorqinligi va originalligi tinglovchi va o‘quvchida his-tuyg‘u va qiziqish uyg‘otishi, uning e‘tiborini qaratishi, aytilayotgan narsaning mazmunini yaxshilab yetkazish uchun zarurdir.

Demak, nutq aniq va ravon bo‘lishi, grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi, adabiy talaffuz qoidalariga bo‘ysunishi, boshlanishidan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim. Ana shunday nutq asosida o‘rganilayotgan bilim o‘quvchi qalbiga borib yetadi. SHunday nutq madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun o‘qituvchidan tinimsiz izlanish va o‘z ustida ishlash, filologik bilim va muttasil nutqiy mashq talab qilinadi.

O‘qituvchining pedagogik faoliyatida nutq texnikasi eng murakkab va doimiy munozaralarga sabab bo‘ladigan jarayon. Psixologik til bilan aytganda nutq texnikasi, notiq nutqining o‘rinli yoki o‘rinsiz ekanligini belgilashda namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi har xil vaziyatlarda, turli xarakterdagi o‘quvchilar bilan muloqotda bo‘ladi. Demak u o‘z nutqini ana shu vaziyatlar asosida, o‘quvchilar holatiga qarab tuzishi, o‘zgartirishi, doimo nutqining ta’sirchan chiqishiga e‘tibor berishi, o‘quvchilarni zeriktirib qo‘ymasligi uchun tilning tasviriy vositalari bo‘lmish metonimiya, metafora kabilardan foydalanishi lozim. O‘quvchilar diqqatini jalb etish, o‘rganilayotgan mavzuga ularni qiziqitira olish o‘qituvchi nutq texnikasining asosiy xususiyatlaridandir. Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining takomillashgan nutqqa ega bo‘lishi, o‘quv materialini talabalar tomonidan puxta o‘zlashtirilishini ta’minlash garovidir. O‘qituvchi go‘zal, o‘zni ham, so‘zni ham qiynamaydigan ravon va ifodalarga boy nutqi bilan o‘quvchilarni mahliyo etib, bermoqchi bo‘lgan bilimni yosh inson shuuriga osonlik bilan olib kiradi. Buning zahirida o‘qituvchining nutqi go‘zal bo‘lmog‘i lozimdir. Nutq qobiliyati –nutq yordamida, shuningdek, imo –ishora vositasida o‘z fikr hamda xis –tuyg‘ularini aniqva ravshan ifodalash qobiliyati. Bu o‘qituvchilik qobiliyati uchun juda muxim. Zotan, ona tili milliy ma’naviyatimizning, dunyoni teran idrok etishimizning zaminidir». Hozirgi o‘zbek adabiy tilining to‘liq shakllanganligi va ulkan ijtimoiy vazifani bajarayotganligi





JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

ayni haqiqatdir. Bu til xalqimiz uchun umumiy til sifatida shakllandi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi Respublikamizda davlat ishlarining, o‘qish-o‘qitish, ta’lim-tarbiya, targ‘ibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi, uning barcha imkoniyatlarini o‘rganish ishlari keng ko‘lamda olib borilmoqda.

Pedagogik faoliyatda o‘qituvchining mahorati, avvalo, uning nutqi va madaniyati bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki o‘qituvchi bilim beruvchi shaxs bo‘lish bilan birga, tarbiyachi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, o‘quvchi qalbiga ta’sir qiluvchi insondir. Shu sababli pedagog uchun nutq texnikasi va nutq madaniyati, shuningdek, o‘z-o‘zini tarbiyalash va doimiy ravishda o‘z ustida ishlash pedagogik mahoratning eng asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. O‘qituvchi nutqi orqali nafaqat bilim beradi, balki o‘quvchilarda fikrlash, dunyoqarash, madaniyat va axloqiy fazilatlarni ham shakllantiradi.

Nutq texnikasi pedagogning so‘zlash jarayonidagi mahoratini bildiradi. Bu o‘qituvchining ovozi to‘g‘ri boshqarishi, talaffuzning aniq bo‘lishi, so‘zlarni ravon va tushunarli ayta olishi, nutqning ta’sirchanligini oshira bilishidir. Nutq texnikasi tarkibiga ovoz balandligi, tembri, nafas olish, pauza, ohang, urg‘u va mimika kabi elementlar kiradi. Agar o‘qituvchi nutqi ravon, aniq va ifodali bo‘lsa, o‘quvchilar uni diqqat bilan tinglaydi, darsga qiziqishi ortadi. Aksincha, nutqi noaniq, bir xil ohangda yoki juda past ovozda bo‘lsa, o‘quvchilar zerikib qolishi mumkin. Shuning uchun pedagog doimo nutq texnikasini rivojlantirib borishi zarur.

Nutq madaniyati esa o‘qituvchining so‘zlashish odobi, til boyligi va fikrni to‘g‘ri ifodalash qobiliyatidir. Nutq madaniyatiga ega bo‘lgan pedagog adabiy til qoidalariga amal qiladi, so‘zlarni o‘rinli ishlatadi, qo‘pol yoki noo‘rin iboralardan qochadi. O‘qituvchi nutqi nafaqat bilim berish vositasi, balki tarbiyaviy qurol hamdir. Chunki o‘quvchilar o‘qituvchining nutqiga taqlid qiladi, undan o‘rnak oladi. Shu bois





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

pedagogning nutqi madaniyatli, muloyim, aniq va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Pedagogik mahorat faqat tug'ma iste'dod bilan emas, balki doimiy mehnat, izlanish va o'z ustida ishlash orqali shakllanadi. O'z-o'zini tarbiyalash o'qituvchining shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, o'z kamchiliklarini anglash va ularni bartaraf etishga intilishi demakdir. Pedagog o'zini tarbiyalash orqali sabr-toqatli, mas'uliyatli, adolatli, mehribon va talabchan bo'lishni o'rganadi. O'qituvchi o'zini boshqara olishi, hissiyotlarini nazorat qilishi va pedagogik vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishi ham o'z-o'zini tarbiyalash natijasidir.

O'z ustida ishlash esa pedagogning kasbiy bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishidir. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi faqat eski bilimlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. U yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalarini o'rganib borishi zarur. Shuningdek, kitob o'qish, tajriba almashish, seminar va treninglarda qatnashish, o'z darslarini tahlil qilish orqali pedagogik mahorat yanada rivojlanadi.

Pedagogik mahoratning asosiy sharti shundaki, o'qituvchi o'z nutqini ham, shaxsiy fazilatlarini ham muntazam takomillashtirib borishi lozim. Chunki o'qituvchi nafaqat fan o'rgatuvchi, balki yosh avlodni tarbiyalovchi komil insondir. Uning nutqi, muomalasi, odobi va madaniyati o'quvchilar uchun namuna bo'ladi. Shu sababli pedagog o'z nutq texnikasi va madaniyatini oshirish bilan birga, o'z-o'zini tarbiyalash va doimiy ravishda o'z ustida ishlashni hayotiy ehtiyojga aylantirishi kerak.

Nutq texnikasi va nutq madaniyati pedagogik mahoratning ajralmas qismi bo'lib, o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi muvaffaqiyatini belgilaydi. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash esa pedagogning shaxsiy va kasbiy kamolotini ta'minlaydi. Shunday ekan, har bir pedagog doimo izlanishda bo'lishi, nutqini rivojlantirishi va o'zini tarbiyalab borishi orqali haqiqiy mahorat egasiga aylanishi mumkin.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat, -T.: Iqtisod-moliya, 2010-312 b.
2. Roziyeva D.I., Tolipov O.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.
3. Sh.Abdullayeva, D.I.Roziyeva. Pedagogik diagnostika va korreksiya. . Darslik. T.: Fan va texnologiyalar, 2019.
4. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.5.
5. OPPORTUNITIES TO DEVELOP PEDAGOGICAL THINKING IN FUTURE TEACHERS BASED ON THE INTEGRATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES KS Shaydullayeva Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka 3 (4)
6. THE NEED FOR PEDAGOGICAL THINKING IN THE PEDAGOGICAL ACTIVITY OF A MODERN TEACHER SK Shapulatonva FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES 2 (24
7. DESCRIPTION OF SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL THEORIES ON THE FORMATION OF PEDAGOGICAL THINKING SK Shapulatonva MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH 3 ...

